International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

SHAXS DEYKSISI – TURLI TILLAR TIZIMIDA

Norkulova Shaxlo

SamDCHTI “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedra o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda shaxs deyksisi ko`pgina tilshunoslarni o`ziga jalb qilmoqda. Bunga sabab matn mazmunini to`liq anglash va sodir bo`layotgan hodisani kognitiv tahlil qilish uchun shaxs voqeilikni o`z ko`z o`ngida bo`layotgandek tasavvur qilishidadir. Voqeilikda sodir bo`layotgan hodisa va jarayonlar shaxsning o`z “men”idan kelib chiqqan holda qabul qilinadi va baholanadi. Shaxs voqeilikni idrok qilibgina qolmay, o`z nutqiy tafakkuridan kelib chiqqan holda uni adresatga bayon qiladi. Shuning uchun ham nutqiy tafakkur va lisoniy ong markazida idrok shaxsi turadi, uning meni axborotning lisoniy bayoni uchun boshlang’ich nuqtadir. Shaxs nutqiy muloqot jarayonida voqeilikning zamon, makon, ijtimoiy mavqei tushunchalarini o`zi belgilaydi va shu sababli muloqot markazida shaxs turadi. Bu markaz shaxsga asoslanib, yagona deyktik maydonni hosil qiladi.

KALIT SO’ZLAR

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ta’kidlash mumkinki, deyksis maydoni markazida shaxs turadi. Shaxs deyksisi esa o`z navbatida olmoshlar guruhlarida o`z aksini topadi. Olmoshlar uch shaxsdan iborat bo`lgani kabidek nutqiy muloqot jarayonida shaxs deyksisining ham uch tarkibdan iborat ekanligini ko`rishimiz mumkin.

Kirish.

Bugungi kunda shaxs deyksisi ko`pgina tilshunoslarni o`ziga jalb qilmoqda. Bunga sabab matn mazmunini to`liq anglash va sodir bo`layotgan hodisani kognitiv tahlil qilish uchun shaxs voqeilikni o`z ko`z o`ngida bo`layotgandek tasavvur qilishidadir. Voqeilikda sodir bo`layotgan hodisa va jarayonlar shaxsning o`z “men”idan kelib chiqqan holda qabul qilinadi va baholanadi. Shaxs voqeilikni idrok qilibgina qolmay, o`z nutqiy tafakkuridan kelib chiqqan holda uni adresatga bayon qiladi. Shuning uchun ham nutqiy tafakkur va lisoniy ong markazida idrok shaxsi turadi, uning meni axborotning lisoniy bayoni uchun boshlang’ich nuqtadir. Shaxs nutqiy muloqot jarayonida voqeilikning zamon, makon, ijtimoiy mavqei tushunchalarini o`zi belgilaydi va shu sababli muloqot markazida shaxs turadi. Bu markaz shaxsga asoslanib, yagona deyktik maydonni hosil qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, deyksis maydoni markazida shaxs turadi. Shaxs deyksisi esa o`z navbatida olmoshlar guruhlarida o`z aksini topadi. Olmoshlar uch shaxsdan iborat bo`lgani kabidek nutqiy muloqot jarayonida shaxs deyksisining ham uch tarkibdan iborat ekanligini ko`rishimiz mumkin. Birinchi shaxs so`zlovchi, so`zlovchining o`rniga ishora, "o`zini ko`rsatish, eslatish"ning ifodasidir:

I thank you for the pewter soldier, my little friend! [1,104]

Xuddi shunday misolni o`zbek xalq ertaklarida ham ko`rishimiz mumkin:

Meni o`z onamdek qabul qildingiz, - debdi Zumrad. Sizga qanday qaytarsam ekan, men ishdan qochmayman, ishlaringizni jon-dilim bilan bajaraman. [4,www.ertak.uz]

Ikkinchi shaxs – tinglovchi yoki adresatning lisoniy belgilanishidir:

I thank you for the pewter soldier, my little friend! [1,104]

Agar qizingni yo`qotmasang, sen bilan birga yashamayman! [4,www.ertak.uz]

Ushbu misolda kataforik hodisasi ham kuzatilib, *you* olmoshi gapning oxirida berilayotgan *my little friend* iborasiga antisedent ekanligini ko`rishimiz mumkin.

Hamda uchinchi shaxs muloqotning bevosita ishtirokchisi bo`lmagan shaxs (na so`zlovchi na adresat)ga ishoradir:

He had a dirty little room close by the pigsty; and there he sat the whole day, and worked. [2,59]

Bor ekan, yo`q ekan, bir zamonda bir kishi bo`lgan ekan. Boy ham, kambag`al ham emas ekan. Uning uchta o`g`li bor ekan, uchovi ham o`qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o`zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekanlar. [4,www.ertak.uz]

Ushbu berilgan o`zbek tilidagi misolda deyksisni namoyon qiluvchi anafora hodisasini uchratishimiz mumkin. Gapning boshida berilgan "bir kishi" so`zi keyingi qatordagi "uning" olmoshi bilan anforik aloqaga kirishyapti.

Nutqiy muloqotda shaxs deyksisining o`rni beqiyosdir. Hatto Lyons H.Rayxenbaxning deyksis hodisasini o`rganar ekan, birinchi shaxs olmoshining ikkinchi va uchinchi shaxs olmoshlaridan ustun ekanligini inobatga olib, barcha deyktik iboralarni I «men» olmoshi «men» so'zi belgisini talaffuz qilayotgan "shaxs" tuzilmasi vositasida tavsiflashni taklif qilganini aytib o`tgan, biroq bu holat tilshunoslarga unchalik ma'qul kelmagan. [3,639]

Ingliz va o`zbek tillarida shaxs deyksisining farqlari nutq muloqot jarayonida muhim ro`l o`ynamaydi. Har ikkala tilda ham shaxs deyksisining tarkibiy qismi yakdil va ular olmoshlar yordamida ifodalanadi. Olmoshlar esa o`z navbatida, uch shaxsdan tashqari, ko`plik, rod, kelishik kabi kategorial belgilar asosida farqqa ega bo`ladi. O`zbek tili grammatikasida rod mavjud bo`lmaganligi tufayli muloqotning befosita ishtirokchisi bo`lmagan III-shaxs olmoshini ifodalashda tafovut yuzaga keladi.

(Qiyoslang:

He was now an old man and sat with his old wife under the blooming tree.

She kissed the boy, and now they were of the same age and felt alike.[2,89]

Kenja botirning qallig`i nihoyatda xafa bo`ldi. U botirni nihoyatda yaxshi ko`rardi.[4,www.ertak.uz]

Deyktik iboralarning rod kategoriyasi tufayli farqlanishini nafaqat ingliz va o`zbek tillarida balki, fransuz tili misolida ham ko`rishimiz mumkin. Ingliz tilidan farqli ravishda rodlarga ajratish III-shaxs birlikdagina emas, ko`plikda ham yaqqol ko`zga tashlanadi: "Ils vont a la bibliotheque" (Ular kutubxunoga borishdi) gapi erkak jinsi otlar guruhiga kirishi yoki ikkala erkak va ayol jinsi guruhiga ham mansub bo`lishi mumkin. Biroq " Elles vont…." faqatgina ayol jinsi otlar guruhiga nisbatan ishlatiladi.

Ba`zi tillarda, misol uchun o`zbek, rus, nemis va fransuz tillarida ikkinchi shaxs olmoshi nutqiy muloqot jarayonida adresatning ijtimoiy darajasidan kelib chiqqan holda tanlanadi va ikki xil ko`rinishga ega bo`ladi. Birinchisi adresantga yuqori ijtimoiy darajada muomila qilsa, ikkinchisi nisbatan kamroq ijtimoiy darajada munosabat bildiradi: siz-sen, вы-ты, Sie-du, vous-tu. Zamonaviy ingliz tilida bu holat uchramaydi va ikkala holatda ham "you" olmoshi ishlatiladi. Vaholanki, eski ingliz tilida bu jarayon mavjud bo`lib "thou" olmoshi qo`llanilgan. Bu holat olmoshlarning birlik va ko`plik grammatik ifodasi bilan bog`langandek ko`rinadi: men (I) – birlik, biz (we) - ko`plik. Ikkinchi shaxs olmoshining birlik va ko`plik shakli bir xilda ekanligi hammamizga ma'lum. Shuni hisobga olgan holda ingliz tilshunosi Elithabeth bu olmoshlarni ingliz tilida ham farqlashni taklif qiladi: ye, you, your, yours, yourself (you shakllar) – ko`plik uchun; thou, thee, thy, thine va thyself (thou shakllar) –birlik uchun. Olimaning urunishlariga qaramay, zamonaviy ingliz tili hali ham ikkinchi shaxsda ko`plik va birlik uchun "you" olmoshini afzal ko`radi.

Xulosa o`rnida aytadigan bo`lsak, deyktik iboralar kommunikativ hodisa bo`lib, ularda ya'ni barcha tillar kesimida ham pragmatik ham pragmalingvistik holatlar uchraydi. Deyktik vositalar qatoriga kiruvchi so`zlarning leksik ma`nosi u yoki bu turdagi referentga bevosita yoki bilvosita ishora qiladi. Indeksikallar o`rtasida uchraydigan asosiy farq olmoshga xos bo`lgan grammatik kategoriyalar bilan bog`liq bo`lib, u bajaradigan asosoiy funksiyaga ta'sir qilmaydi va semantik ma'no o`zgarmaydi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Hans Christian Andersen. Elderbush. -US:The Pennsylvania State University, 2007. – 151 p.
2. Hans Christian Andersen. The Old House. -US: The Pennslyvanie State University, 2007. – 151 p.
3. Lyons J. Deixis as the source of reference // Formal semantics of natural language: Papers from a Colloquium sponsored by King's college research centre. -Cambridge, 1975. P. 61-83
4. Sharifova, D. Z., & Norkulova, S. J. (2024). MORPHOLOGICALCHARACTERISTICS AND GENERAL PECULIARITIES OF THE NOUN. International Journal of World Languages, 4(2).
5. Джуракулова, Д. (2024). Mindset transformation through fiction reading . Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов, 1(1), 84–89.
6. www.ertak.uz.